

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINING IQTIDORINI DIAGNOSTIKA QILISH MEZONLARI

Sattarova Muhabbat Alijanovna

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: sattarovamuhabbat361@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarining iqtidorini diagnostika qilishning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy mezonlari yoritilgan. Tadqiqotda bo'lajak pedagoglarning iqtidorini aniqlashga xizmat qiluvchi intellektual, motivatsion, kreativ, kommunikativ va refleksiv mezonlar tizimlashtirildi. Har bir mezon bo'yicha baholash indikatorlari ishlab chiqildi hamda ularni kompleks diagnostika qilish imkonini beruvchi yondashuv taklif etildi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning kasbiy salohiyatini baholash va individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtidor, pedagogik iqtidor, diagnostika, mezon, indikator, pedagogika talabasi, kreativlik, kasbiy kompetensiya, motivatsiya, refleksiya, baholash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы и практические критерии диагностики одарённости студентов педагогических направлений. Систематизированы интеллектуальный, мотивационный, креативный, коммуникативный и рефлексивный критерии, позволяющие комплексно оценить педагогическую одарённость будущих учителей. Для каждого критерия разработаны соответствующие показатели оценки и предложен комплексный подход к диагностике. Полученные результаты могут быть использованы в высших учебных заведениях при выявлении одарённых студентов, оценке их профессионального потенциала и разработке индивидуальных траекторий развития.

Ключевые слова: одарённость, педагогическая одарённость, диагностика, критерии, показатели, студент педагогического направления, креативность, профессиональная компетентность, мотивация, рефлексия, оценка.

Abstract. This article examines the theoretical foundations and practical criteria for diagnosing giftedness among students majoring in pedagogy. The study systematizes intellectual, motivational, creative, communicative, and reflective criteria for assessing the pedagogical giftedness of prospective teachers. Assessment indicators were developed for each criterion, and a comprehensive diagnostic approach was proposed to evaluate students' gifted potential. The findings can serve as a methodological basis for identifying gifted

students, assessing their professional potential, and designing individualized developmental pathways in higher education institutions.

Keywords: giftedness, pedagogical giftedness, diagnosis, assessment criteria, indicators, pedagogy students, creativity, professional competence, motivation, reflection, educational assessment.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida bo’lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni nafaqat bilim berish, balki ularning kasbiy salohiyatini erta aniqlash va rivojlantirishga yo’naltirilganligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi shuni talab etadiki, pedagog faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki ijodiy fikrlaydigan, innovatsion yondashuvlarga ega, murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs bo’lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogika yo’nalishi talabalarining iqtidorini aniqlash va uni ilmiy asoslangan mezonlar asosida diagnostika qilish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Iqtidor tushunchasi ko’p qirrali va murakkab fenomen bo’lib, u faqatgina intellektual imkoniyatlar bilan cheklanib qolmaydi. U shaxsning ijodiy salohiyati, motivatsion yo’nalganligi, kommunikativ kompetensiyasi, refleksiv tafakkuri hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog’liqdir. Shuning uchun ham pedagogik iqtidorni baholash jarayonida kompleks yondashuv talab etiladi.

Amaliyot shuni ko’rsatadiki, ko’plab oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilim darajasi an’anaviy test va imtihonlar orqali baholanadi, biroq bu usullar ularning ijodiy va kasbiy salohiyatini to’liq ochib bera olmaydi. Ayniqsa, pedagogika yo’nalishida o’qiyotgan talabalar uchun faqat nazariy bilim emas, balki amaliy pedagogik kompetensiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, iqtidorni aniqlashda intellektual, kreativ, motivatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlarni o’z ichiga olgan kompleks diagnostik tizimni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u pedagogika yo’nalishi talabalarining iqtidorini erta aniqlash orqali ularning individual rivojlanish yo’llarini belgilash, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish hamda kelgusida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, diagnostika jarayonida qo’llaniladigan mezon va indikatorlar talabalarining o’z ustida ishlashiga, ularning kasbiy motivatsiyasini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi pedagogika yo’nalishi talabalarining iqtidorini aniqlash va baholashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan diagnostik mezonlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun iqtidor tushunchasining nazariy asoslari o’rganildi,

mavjud yondashuvlar tahlil qilindi hamda pedagogik iqtidorni kompleks baholash imkonini beruvchi mezonlar tizimi shakllantirildi.

Adabiyotlar tahlili. Iqtidor va uning diagnostikasi masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar iqtidorni aniqlash, rivojlantirish hamda baholashning turli nazariy va amaliy yondashuvlarini shakllantirgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtidorni faqat akademik natijalar orqali emas, balki shaxsning ko‘p qirrali rivojlanish komponentlari asosida baholash zarur.

Iqtidor nazariyasining klassik yondashuvlaridan biri sifatida Lewis Terman tomonidan olib borilgan longitudinal tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u intellektual koeffitsient (IQ) asosida iqtidorni aniqlash g‘oyasini ilgari surgan. Biroq bu yondashuv iqtidorning faqat kognitiv jihatini qamrab olgan uchun keyingi tadqiqotlarda kengaytirildi.

Keyingi yillarda Howard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p intellektual nazariyasi iqtidorni lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, musiqiy, kinestetik va ijtimoiy intellektlar yig‘indisi sifatida talqin qilish imkonini berdi. Bu yondashuv pedagogik iqtidorni kengroq kontekstda o‘rganishga asos yaratdi.

Shuningdek, Joseph Renzulli iqtidorni uch komponentli model asosida izohlab, uni yuqori qobiliyat, kreativlik va vazifaga sadoqatning o‘zaro ta’siri sifatida ko‘rsatadi. Ushbu model pedagogika yo‘nalishi talabalarini diagnostika qilishda kompleks yondashuv zarurligini asoslab beradi.

Robert J. Sternberg esa muvaffaqiyatli intellekt nazariyasi orqali iqtidorni analitik, kreativ va amaliy intellekt uyg‘unligi sifatida talqin qilib, real hayot sharoitlarida muammolarni hal etish qobiliyatini asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi.

MDH hududida olib borilgan tadqiqotlarda iqtidorni rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari pedagogik kompetensiyalar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan bo‘lib, unda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Biroq pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy iqtidorini kompleks diagnostika qilish mezonlari hali to‘liq tizimlashtirilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

Materiallar va usullar. Mazkur tadqiqot pedagogika yo‘nalishi talabalarining iqtidorini diagnostika qilish mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda asoslashga qaratilgan bo‘lib, kompleks ilmiy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda nazariy, empirik va statistik metodlar uyg‘unligi qo‘llanildi hamda iqtidorni baholashning intellektual, kreativ, motivatsion, kommunikativ va refleksiv komponentlariga asoslangan diagnostik model ishlab chiqildi.

Tadqiqot materiali sifatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan pedagogika yo‘nalishi talabalari tanlab olindi. Shuningdek, ularning o‘quv faoliyati natijalari, akademik

yutuqlari, amaliy mashg‘ulotlardagi ishtiroki hamda pedagogik amaliyot davomida namoyon etgan kompetensiyalari o‘rganildi. Qo‘shimcha ravishda, talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma, test natijalari, kuzatuv jadvalari va ekspert baholash materiallari ham tadqiqot manbai sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida iqtidorni aniqlash va baholash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil usuli orqali iqtidor va pedagogik iqtidor tushunchalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar o‘rganildi va mavjud nazariy yondashuvlar tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida iqtidorni baholashga doir turli ilmiy konsepsiyalar, xususan ko‘p intellektlar nazariyasi, uch halqali model va muvaffaqiyatli intellekt nazariyasi o‘zaro solishtirildi.

Empirik bosqichda kuzatish usuli qo‘llanilib, talabalar o‘quv jarayonidagi faolligi, kommunikativ ko‘nikmalari, guruhda ishlash qobiliyati hamda pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonlari bevosita tahlil qilindi. So‘rovnoma usuli orqali talabalarning kasbiy motivatsiyasi, pedagogik kasbiga qiziqishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi o‘rganildi. Test usuli yordamida esa ularning intellektual va kreativ qobiliyatlari diagnostika qilindi. Bundan tashqari, ekspert baholash usuli asosida professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalar faoliyati yuzasidan xolis baholar olindi.


Olingan empirik ma‘lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, natijalar umumlashtirildi va diagnostik mezonlarning samaradorligi baholandi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim paradigmasi hamda faoliyatga asoslangan yondashuv tashkil etdi, bu esa talabalarning iqtidorini faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy faoliyat va shaxsiy rivojlanish darajasi asosida baholash imkonini berdi.

Tadqiqot muhokamasi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika yo‘nalishi talabalarining iqtidorini diagnostika qilishda kompleks yondashuvning muhimligini tasdiqladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtidorni faqat akademik o‘zlashtirish yoki intellektual ko‘rsatkichlar asosida baholash yetarli emas, balki uni ko‘p komponentli tizim sifatida qarash zarur. Aynan intellektual, kreativ, motivatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlarning uyg‘unligi talabaning haqiqiy pedagogik iqtidorini to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, talabalarning bir qismida yuqori intellektual salohiyat mavjud bo‘lsa-da, motivatsion yoki kommunikativ komponentlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning umumiy pedagogik iqtidor darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aksincha, ayrim talabalarda kreativlik va muloqot ko‘nikmalari yuqori bo‘lib, ular amaliy pedagogik vaziyatlarda samarali yechimlar topa olish qobiliyatini namoyon etgan. Bu holat iqtidorning ko‘p o‘lchovli tabiatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari diagnostika jarayonida reflektiv komponentning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘z faoliyatini tahlil qila oladigan, o‘z xatolarini anglab, ularni tuzatishga intiladigan talabalar kelgusida yuqori darajadagi kasbiy rivojlanishga erishishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa refleksiya pedagogik iqtidorning muhim indikatorlaridan biri ekanligini asoslaydi.

Ekspert baholash va so‘rovnoma natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalarning kasbiy motivatsiyasi ularning iqtidorini rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Kasbga bo‘lgan ichki qiziqish va o‘zini rivojlantirishga intilish yuqori bo‘lgan talabalar diagnostika jarayonida ham yuqori natijalarni qayd etgan. Bu holat motivatsion komponentning iqtidor tarkibidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

RENZULLINI MODEL (Uch halqali iqtidor modeli)



1-rasm Renzulli uch halqali modeli.

Shuningdek, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan diagnostik mezonlar amaliy sinovdan o‘tkazilganda ularning pedagogika yo‘nalishi talabalarini tabaqalashtirilgan holda baholash imkonini berishi aniqlandi. Bu esa o‘qituvchilarga iqtidorli talabalarni erta aniqlash, ular

uchun individual rivojlanish trayektoriyalarini ishlab chiqish va maxsus pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik iqtidorni diagnostika qilishda an‘anaviy yondashuvlardan voz kechib, integrativ va ko‘p komponentli modelga o‘tish zarurligini ko‘rsatdi. Bu yondashuv zamonaviy ta‘lim talablariga mos bo‘lib, bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika yo‘nalishi talabalarining iqtidorini diagnostika qilish jarayoni kompleks va ko‘p komponentli yondashuvga asoslanishi lozimligini ko‘rsatdi. Iqtidorni faqat akademik bilimlar yoki intellektual ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emasligi, uni intellektual, kreativ, motivatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlar uyg‘unligida tahlil qilish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan diagnostik mezonlar tizimi talabalarning kasbiy salohiyatini aniqroq aniqlashga imkon berishi aniqlandi. Ushbu mezonlar asosida o‘tkazilgan baholash natijalari talabalarning iqtidor darajasini tabaqalashtirish, ularning kuchli va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Bu esa pedagogik jarayonda individual yondashuvni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari iqtidorli talabalarni erta aniqlash va ularni maqsadli rivojlantirish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, motivatsion va refleksiv komponentlarning rivojlanish darajasi talabalarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Terman L. *Genetic Studies of Genius*. Stanford University Press, 1925.
2. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books, 1983.
3. Renzulli J. S. *The Three-Ring Conception of Giftedness*. University of Connecticut, 1978.
4. Sternberg R. J. *Successful Intelligence*. Plume, 1996.
5. Vygotsky L. S. *Mind in Society*. Harvard University Press, 1978.
6. Gagné F. *Differentiated Model of Giftedness and Talent (DMGT)*. 2004.
7. Bloom B. S. *Developing Talent in Young People*. Ballantine Books, 1985.